

## SUG'DNING ILK O'RTA ASRLAR SIYOSIY TARIXI NUMIZMATIK MANBALARDA

**Zayniddinova Mashxura Ilhom qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti*

[zayniddinovamashxura@gmail.com](mailto:zayniddinovamashxura@gmail.com)

**Аннотация:** *Ushbu maqolada Sug'dning ilk o'rta asrlardagi siyosiy tarixi Numizmatika manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sug'd hududida muomalada bo'lgan tangalarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyati yoritilib, ular orqali mahalliy hukmdorlar hokimiyati, shahar-davlatlar mustaqilligi hamda tashqi siyosiy ta'sirlar o'rganiladi. Shuningdek, tangalardagi yozuvlar, ramzlar va hukmdor tasvirlari asosida G'arbiy Turk xoqonligi hukmronligi davridagi siyosiy jarayonlar tahlil etiladi. Maqolada numizmatik manbalarning Sug'd tarixini qayta tiklashdagi ilmiy ahamiyati ochib berilib, ularning tarixiy manba sifatidagi ishonchliligi asoslab beriladi.*

**Калит со'злар:** *Sug'd, numizmatika, V–VIII asrlar, ilk o'rta asrlar, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipakyo'li, shahar-davlatlar, Samarqand vohasi, Buxoro, Panjikent, Zarafshon daryosi, tanga zarb qilish, tanga-pul tizimi, savdo-iqtisodiy aloqalar, hukmdorlar (ixshidlar), siyosiy hokimiyat, mustaqil davlatlar, tamg'alar, epigrafik manbalar, yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar, ikonografiya, Aleksandr Makedonskiy tangalari, Salavkiylar davlati, G'arbiy Turk xoqonligi hukmronligi.*

**Аннотация:** *В данной статье политическая история раннесредневекового Согда анализируется на основе нумизматических источников. В исследовании освещается политическое, экономическое и культурное значение монет, находившихся в обращении на территории Согда, и через них изучаются власть местных правителей, независимость городов-государств, а также внешние политические влияния. Также на основе надписей, символов и изображений правителей на монетах анализируются политические процессы периода господства Западнотюркского каганата. В статье раскрывается научное значение нумизматических источников в реконструкции истории Согда и обосновывается их достоверность как исторического источника.*

**Ключевые слова:** *Согд, нумизматика, V–VIII века, раннее средневековье, Центральная Азия, Великий Шёлковый путь, города-государства, Самаркандская долина, Бухара, Пенджикент, река Зеравшан, чеканка монет, монетно-денежная система, торгово-экономические связи, правители (ихшиды), политическая власть, независимые государства, тамги, эпиграфические источники, письменные источники, археологические памятники, иконография, монеты Александра Македонского, государство Селевкидов, господство Западнотюркского каганата.*

**Annotation:** *This article analyzes the political history of early medieval Sogd based on numismatic sources. The study highlights the political, economic, and cultural significance of coins in circulation in the Sogd region, and through them examines the authority of local*

*rulers, the independence of city-states, and external political influences. Furthermore, based on inscriptions, symbols, and depictions of rulers on coins, the political processes of the period of the Western Turkic Khaganate domination are analyzed. The article reveals the scientific significance of numismatic sources in reconstructing the history of Sogd and substantiates their reliability as historical sources.*

**Keywords:** *Sogd, numismatics, 5th–8th centuries, early Middle Ages, Central Asia, Great Silk Road, city-states, Samarkand oasis, Bukhara, Panjikent, Zarafshan River, coin minting, monetary system, trade-economic relations, rulers (ikhshids), political power, independent states, tamgas, epigraphic sources, written sources, archaeological monuments, iconography, coins of Alexander the Great, Seleucid state, domination of the Western Turkic Khaganate.*

V-VIII asrlar chegarasi bilan davrlanadigan ilk oʻrta asrlar davri Markaziy Osiyo tarixining turli-tuman tarixiy voqeliklarga boy boʻlgan murakkab davridir. Qadimdanoq qitʼalararo choʻzilgan madaniy va savdo yoʻllarining chorrahasida, shu jumladan Buyuk Ipak yoʻli ustida joylashgan Oʻrta Osiyo hududi mana shu davrda turlicha madaniyatlarning, turlicha tillarning va turlicha dinlarning bir-birlari bilan muloqot maydoniga aylanadi. Bu voqeliklar ushbu oʻlkaning ilk oʻrta asrlar davriga oid shaharsozligida, qishloqlari qurilishida, meʼmorchiligida va umummoddiy madaniyatida oʻzining chuqur izini qoldirgan.

Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik maʼmuriy birlik hisoblangan Sugʻd davlati hozirgi Oʻzbekiston hududining Qashqadaryo, Samarqand va qoʻshni Tojikiston hududining Panjikent viloyatlari atrofidagi yerlarni oʻz ichiga olgan.

<sup>19</sup>Zarafshon daryosining yuqori oqimidan boshlanuvchi Samarqand vohasi Samarqand botigʻida joylashgan boʻlib, shimoldan Gʻubdintogʻ-Oqtogʻ-Qoratogʻ, janubdan Qoratepa Zirabuloq Ziyovuddin kabi togʻlar bilan oʻralgan. Voha shimoldan Qizilqum bilan, sharqdan Qoʻsh tepa, Azkamar, Quymozor, Qaynagʻach, Qumsulton kabi tepaliklar, janub va janubiy-gʻarbdan esa Qorakoʻl platosi bilan oʻralgan. Zarafshon daryosi sharqiy Sugʻd chegarasidan boshlanib, Gʻarbiy Sugʻd Buxoroda tugagan.

Sugʻd davlati haqidagi maʼlumotlar bizga turli tarixchi va sayyohlarning asarlarida, koʻplab moddiy va yozma manbalardan maʼlumdir. Mintaqa tarixidan guvohlik beruvchi yana muhim manbalardan biri bu numizmatik manbalar hisoblanadi.

<sup>20</sup>Tanga pullar qadimiy davrlarda, yaʼni mehnat taqsimoti paydo boʻlib, ishlab chiqarish ancha rivojlangan, ishlab chiqargan mahsulotlari ishlab chiqaruvchining oʻz ehtiyojidan ortib qolgan va uni boshqa mahsulotlar masalan, qishloq xoʻjaligi yoki qoʻl hunarmandchilik mahsulotlari bilan almashtirish zaruriyati tugʻilgan bir davrda mollarning almashtirish ekvivalenti sifatida paydo boʻlgan.

Maʼlum bir mintaqa yoki biror hudud tarixini oʻrganishda tadqiqotchilar oʻlka bilan bogʻliq boʻlgan barcha jihatlariga, jumladan, joylashuv oʻrni, chegaralari va madaniyati bilan bogʻliq

<sup>19</sup> B.Gʻoyibov “Sugʻd tarixidan lavhalar” Samarqand-2020, SamDU nashriyoti, 76-bet

<sup>20</sup> И.Тухлиеву “Тангалар тилга кирганда”. Тошкент, ФАН. 1989. С-3

bo'lgan ko'plab topilmalari, etnografik ma'lumotlar, yozma manbalar, antropologiyaga oid topilamalar, epigrafik ma'lumotlari va boshqa ko'plab jihatlariga tayangan holda tadqiqot olib boradilar. Ma'lum bir hudud yoki biror yodgorlik tarixini o'rganishda ko'plab ma'lumot beradigan yana shunday manbalar boriki, biz bu manbalar orqali mintaqa iqtisodiyoti, diplomatiyasi, savdo aloqalari kabi qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bunday manbalar- numizmatik manbalardir.

Numizmatik manbalar tadqiqotchilarga o'tmishning eng muhim jihatlaridan bo'lgan o'z zamonasining siyosiy-iqtisodiy jihatlarini ochib berishda hamda bir qancha tarixiy hujjatlarda qayd qilinmay qolgan voqea-hodisalar, davlat boshliqlarining hukmronlik qilgan davrlarini va ularning nomlarini aniqlashda juda muhim rol o'ynaydigan asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, numizmatik manbalar tarixni o'rganishda aniq ma'lumotlar beradigan arxeologik yodgorliklar sirasiga kiradi. Sababi, tangalarda uning qachon, qaysi hukmdor tomonidan zarb qilinganligi, ayrim tangalarda esa bizgacha surati saqlanmagan hukmdorlarning tashqi qiyofasi aks etgan bo'ladi. Qolaversa, tangalarga tushirilgan bir qancha tasvirlardan, zarb qilingan davrning diniy e'tiqotlarini ham aniqlashimiz mumkin.

Bugungi kunda olimlar tomonidan bir qancha sug'd tilda yozilgan yodgorliklar-epigrafik, numizmatik hamda yozma manbalar topilgan bo'lib, bunday sug'diy tilda bitilgan yodgorliklarning ko'p qismini numizmatik manbalar tashkil etadi. Bunday manbalarning ko'pchiligi qadimgi Sug'd o'lkasiga qarashli bo'lgan hududlardan va bu mintaqa bilan qadimda savdo aloqalari olib borgan o'lkalar va uning tarkibida bo'lgan bir qancha mintaqalar hududlaridan topib o'rganilgan.

Yillar mobaynida olib borilgan tadqiqotlar shundan guvohlik beradiki, O'rta Osiyo mintaqasi qadimdan shaharsozlik madaniyati rivojlangan va yirik davlatlar hukmronlik qilgan o'lkalardan biridir. Bu o'lkada tashkil topgan bir qator davlatlar o'zlarining tanga pullarini zarb ettirganlari tadqiqotlar davomida topilgan tangalar, bundan tashqari ko'plab yozma manbalardan ham siz-u, bizga ma'lumdir.

Dastlab, Markaziy Osiyo hududida savdo-sotiqda qulay vosita hisoblangan tanga-pullardan miloddan avvalgi IV-II asrlarda hukm surgan Yunon-Baqtriya davlati va miloddan avvalgi II hamda milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan yirik Kushonlar saltanatida foydalana boshlashgan. Keyinchalik ilk o'rta asrlarga kelib mintaqaning yirik markazlari hisoblangan Sug'd hamda Qadimgi Xorazm davlatlarida tangalar zarb qilina boshlangan. Xuddi shu vaqtda Choch vohasi hududidagi yirik ma'muriy birlik hisoblangan Qang' davlatida (miloddan avvalgi III va milodiy III asrlar) tangalar zarb qilingan bo'lsa, VII-VIII asrlarga kelib esa Farg'ona va Ustrushona hududlari hukmdorlari tomonidan ham tangalar zarb qilina boshlangan. Bungacha mintaqada hukm surgan davlatlar savdo-sotiqni tovar ayirboshlash orqali amalga oshirganlar.

Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan va unga qo'shni bo'lgan mintaqalarda tashkil topgan Sug'd, Toxariston, Choch, Ustrushona, Farg'ona, O'tror kabi ma'muriy birliklar ilk o'rta asrlardanoq o'z tanga pullarini zarb qila boshlaganlar. Bu jarayon o'sha davrda yuqorida nomlari keltirilgan davlatlarning mustaqil davlat sifatida hukm surganliklaridan dalolat

beradi. Buni esa biz tadqiqotlarda topilgan tangalardagi turli hukmdorlarga tegishli bo'lgan tamg'alardan ham bilib olishimiz mumkin.

<sup>21</sup>Asosan siyosiy iqtisodiy ehtiyojlar vositasi sifatida zarb etilgan mazkur tangalardagi ma'lumotlar o'z davri siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yoritishda o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, ularda aks etgan hukmdorlar ismi va unvoni, turli xil ramziy belgilar (tamg'a va boshqalar) ko'proq siyosiy hayotni yoritishga yordam bersa, ikonografik (tasvir va syujetlar) va paleografik jihatlari, yasaliş texnikasi, metal turi va boshqalar o'sha davrdagi madaniy-iqtisodiy holatni tasavvur qilishga xizmat qiladi.

Manbalarda keltirilishicha, Sug'd davlatida dastlabki tanga pullarning paydo bo'lishi avval mintaqada keng tarqalgan Aleksandr Makedonskiy tangalari bilan bog'liqdir. Jumladan, janubiy Sug'dda Sug'd draxmalarining paydo bo'lishiga Aleksandr Makedonskiy tomonidan zarb qilingan draxmalar asos bo'lganligi ko'plab numizmat olimlar keltirgan ma'lumotlaridan bizga ma'lumdir.

<sup>22</sup>Aleksandr tangalariga taqlid qilib yasalgan Sug'd tangalari ayrim jihatlari bilan ulardan farq qiladi. Masalan, Aleksandr tangalari kumushdan yasalgan bo'lsa unga taqlid qilib chiqarilgan Sug'd tangalari kumush va boshqa ma'danlar aralashmasidan hosil bo'lgan materiallardan yasalgan. Bunday materialdan yasalgan tangalarning ichi misdan, tashqarisi esa kumushdan bo'lgan.

Mil.avv.III asrning oxiri va II asrning boshlarida Sug'd Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, o'zi mustaqil davlat sifatida shakllana boshlaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu davlat sak va sarmat qabilalari tomonidan bosib olingach, ushbu qabilalar Sug'd hududida o'zlari mustaqil hukmronlik qila boshlashadi. Manbalarda keltirilishicha, ushbu qabilalar haqidagi ma'lumotlarni Yustin va Strabonning asarlarida uchratishimiz mumkin.

Qadimgi Sug'd davlati janubiy o'lkalarining bu davrga oid tarixi bugungi kungacha, asosan, numizmatik manbalar orqali o'rganilgan. Ushbu davrda Janubiy Sug'dning mahalliy hukmdorlari o'z tangalarini salavkiylar tangalariga o'xshash tarzda zarb qildirganlar. Bunday tangalarda Aleksandr Makedonskiy, Salavka I va Antiox I larning tasvirlari aks ettirilgan. Sug'd hukmdorlarining tangalariga tushirilgan yuqorida keltirilgan hukmdorlar tasvirlarini tadqiqotchilar tomonidan "mahalliy hokimlar o'zlarini Salavkiy hukmdorlarga qarindosh qilib ko'rsatish maqsadida o'z tangalariga bunday tasvirlarni tushirganlar", deya talqin qilinadi.

Ilk o'rta asrlarda Sug'd konfederatsiyasida tovar-pul munosabatlarining yuqori sur'atlarda o'sishiga mintaqa hududida yuzaga kelgan bir qancha omillar sabab bo'lgan. Jumladan, feodal tuzumning shakllanishi, iqtisodiyot va siyosatning yuksalishi hamda uning barqarorlashishi, xalqaro maydonlarda savdo munosabatlarining rivojlanishi hamda sug'd tovarlari va sug'diy savdogarlarning boshqa mamlakat bozorlarida ahamiyatini oshishi va shu kabi boshqa omillar buning asosiy sabablari sirasiga kiradi. Bu davrga kelib Sug'd davlatida Samarqand va Penjikent tanga chiqarishning asosiy markazlariga aylanadi. <sup>23</sup>O'rta Osiyo

<sup>21</sup> Гайбулла Бобоёров, Бобир Гойилов "Сугдшуносликка кириш- I Сугдий тил ва нумизматика" Т. 2018, 40-6.

<sup>22</sup> А. Бердимуродов, Ш. Индаминова "БУЮК ИПАК ЙУЛИ" Т.: 2017, 246-6

<sup>23</sup> Х.Г. Ахун-бабаев "Дворец Ихшидов Согда на Афрасиабе". Самарканд-1999, с-57

dunyosi iyerarxiyasidagi eng yuqori “shoh” (MLK') unvoni bilan Samarqandda chiqarilgan VII-VIII asr boshlariga oid bronza tangalar So‘g‘dda ilk feodal davlati shakllanishining siyosiy hujjati hisoblanadi.

Sug‘d tangalari haqidagi dastlabki ma’lumotlar o‘tgan asrning oxirlarida paydo bo‘la boshlagan. Ushbu hudud tangalarini o‘rganishga 1933- yilda Shimoliy Tojikiston hududida joylashgan Mug‘ tog‘idagi qasr qoldig‘idan topilgan qimmatli topilmalar ham asos bo‘lgan. A.A. Frayman va uning shogirdlari T.S. Ernazarova va D. Davutovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tufayli sug‘d numizmatik manbalarining yangi tarmog‘i vujudga keldi. Sug‘d ixshidlari va Panj afshinlari tomonidan zarb qilingan tangalar hozirgacha mintaqaning yagona tangalari bo‘lib qolmoqda, ularga o‘shash tarzda zarb qilingan turli tangalar bo‘lishi ham mumkin.

<sup>24</sup>Ilk zarb qilingan So‘g‘d tangalarining avers (old qism) qismida silliq sochli ma’budaning tasviri bo‘lsa-da, VII asrning yarmidan Sug‘d hokimlari ixshidlar hamda ularga tobe amlokdorlar to‘rt burchak teshikli, hech bir tasvirsiz siyqa tangalar zarb qila boshlashadi. Tanganing o‘ngida kursiv bilan berilgan su‘g‘d yozuvi hukmdorning ismi va unvonini (masalan, «Shoh Shipshir») bildiradi. Tanganing yuzasida esa har bir hukmdorning o‘z sulolasiga xos belgi berilgan. Bunday tangalar hamda ulardagi ism va unvonlar o‘zgartirilib, Yettisoyda Turgash nomli turk qabilasi, Buxoro vohasida savdogarlar shahri bo‘lmish Poykent, Shimoliy Toxariston va Chochda zarb etilardi. Eng so‘nggi Sug‘d tangalarida eramizning VII asridan boshlab sug‘d yozuvlari bilan bir qatorda qisqacha arab yozuvlari ham paydo bo‘la boshlaydi.

Tangalar tarixni o‘rganishda qimmatli manbalar ekanligining yana boshqa sabablaridan biri shundaki, biz ushbu tangalarga bitilgan yozuvlardan, sanalardan va tangada keltirilgan hukmdor nomlaridan o‘sha tangani zarb qilgan davlatning yozuvi, zarb qilingan yili, tanga zarb qilingan davrda qaysi shaxs tomonidan davlat boshqarilganligini va shu kabi ko‘plab ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin. G‘. Babayorov keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, VII asrning 2-yarmi va VIII asr o‘rtalariga qadar qadimgi Sug‘d davlatida Xitoy tangalariga taqlidan zarb qilingan tangalarda sug‘d tilida yozilgan Shishpir, Avarxuman, Tukaspadak, Tarxun, G‘urak, Turg‘ar kabi qadimgi Sug‘d davlati hukmdorlarning ismlarini uchratishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.G‘oyibov “Sug‘d tarixidan lavhalar” Samarqand-2020, SamDU nashriyoti
2. Э.Ртвеладзе”Древние монеты Средней Азии”Т.:1987.
3. Х.Г.Ахун-бабаев”Дворец Ихшидов Согда на Афрасиабе”.Самарканд-1999.
4. А.Бердимуродов, Ш.Индаминова”Буюк ИПАК ЙУЛИ”Т.:2017
5. Гайбулла Бобоёров, Бобир Гойибов”Сугдшуносликка кириш-I Сугдий тил ва нумизматика”Т.2018
6. И.Тухлиев”Тангалар тилга кирганда”.Тошкент, ФАН.1989

<sup>24</sup> Э.Ртвеладзе”Древние монеты Средней Азии”Т.:1987.С-22